



**FARZAND TARBIYASIDA OTA-ONALAR ROLI:
ZAMONAVIY PEDAGOGIK VA
PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR**
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya



**TALABALARDA IJTIMOIIY KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISHNING
MILLIY VA XORJIY TAJRIBALARI**

Haydarova Marguba In'omovna

Qo'qon DU pedagogika kafedrasida dotsenti, (PhD)

Burhonova Muhlisaxon Ilhom qizi

Qo'qon DU 2-bosqich talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada talabalarda ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishning milliy va xorjiy tajribalari hususida so'z borib, mamlakatimiz olimlari, buyuk mutafakkirlarning ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish hususida fikrlari, xorijiy mamlakatlar olimlarining ijmoiylashishga oid qarashlari hususida ayrim fikr-mulohazalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar. Talaba, ta'lim jarayoni, milliy va xorijiy tajriba, allomalar, ijtimoiylashuv, ijtimoiy ko'nikma, rivojlantirish, mahorat.

**НАЦИОНАЛЬНЫЙ И ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ РАЗВИТИЯ
СОЦИАЛЬНЫХ НАВЫКОВ У СТУДЕНТОВ**

Хайдарова Маргуба Иномовна

Доцент кафедры педагогики Кокандского ГУ, (PhD)

Бурхонова Мухлисаксон Ильхом кызы

Студентка 2 курса Кокандского ГУ.

Абстрактный. В данной статье говорится о отечественном и зарубежном опыте развития социальных навыков у студентов, мнениях ученых и великих мыслителей нашей страны о развитии социальных навыков, а также некоторые мнения о взглядах ученых зарубежных стран на консенсус.

Ключевые слова. Студент, образовательный процесс, отечественный и зарубежный опыт, знания, социализация, социальные навыки, развитие, умения.

**NATIONAL AND FOREIGN EXPERIENCES OF DEVELOPING SOCIAL
SKILLS IN STUDENTS**

Haydarova Marguba In'omovna

Associate Professor of the Department of Pedagogy of Kokand SU, (PhD)

Burhonova Mukhlisaxon Ilhom kizi

2nd year student of Kokand SU



**FARZAND TARBIYASIDA OTA-ONALAR ROLI:
ZAMONAVIY PEDAGOGIK VA
PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR**
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya



Abstract. *This article talks about the national and foreign experiences of developing social skills in students, the opinions of our country's scientists and great thinkers on the development of social skills, and some opinions on the views of scientists of foreign countries on consensus.*

Keywords. *Student, educational process, national and foreign experience, knowledge, socialization, social skills, development, skills.*

Kirish. Talabalarda ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish haqidagi fikrlar juda sodda bo'lishiga qaramay, ular shaxs kamolotida muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, O'rta Osiyo xalqlari uzoq o'tmishga, ko'p asrlik tarixga, boy madaniy merosga ega. O'rta Osiyoni markazida joylashgan O'zbekiston Sharqning eng qadimiy, madaniy o'choqlaridan biri bo'lib, u jahon fani tarixiga munosib hissa qo'shgan. Xorazmlik olim al Xorazmiy nomi «algoritm» degan termin orqali, Yevropada "Alfrachanus" nomi bilan mahshur bo'lgan olim Ahmad al Farg'oniy «Astronomiya asoslari» asari bizgacha yetib keldi. Abu Rayhon Beruniy ijodida «Tana va Rux» ga oid hodisalar talqin qilindi. U odamlar o'z tabiati jihatidan bir-biridan farq qilishini, bu farq uning mijozi, fe'l atvori va tabiiy xususiyatlarida namoyon bo'lishini ta'kidladi. U inson hayotini biologik va irsiy omillar bilan bog'laydi. Uning zamondoshi Abu Nasr Farobiy shaxsning ijtimoiylashuv jarayonlari bilan fiziologik jarayonlari orasidagi bog'liqlik, dunyoni bilish haqidagi ta'limoti bilan shuhrat qozondi. U axloqiy sifatlar tug'ma bo'lmay, balki mashqlar, ko'nikma va malakalar, odatlar natijasi deb uqtiradi. Bu yerda irodaning ahamiyati o'sganligini, uning yordamida kishi o'zida hissiy va ma'naviy ehtiyojlarni ongli ravishda tanlash ko'nikmasiga ega bo'ladi deydi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Farobiyning ta'limoti Ibn Sino qarshilarining shakllanishiga kuchli ta'sir qiladi. Ibn Sino «Tib qonunlari» asarida organizmning tuzilishi, undagi asab va asab yo'llari, fiziologik jarayonlar bilan bog'liq psixik jarayonlar haqida fikr yuritadi. U bola tarbiyasiga alohida e'tibor berdi va jismoniy tarbiya sog'lom va tetik insonni shakllantirishning muhim omili ekanini, bolaning tug'ilgandan boshlab, bolalikdan o'smirlikka o'tish davrida sog'lom turmush tarzini shakllantirish va shu orqali uni ijtimoiy hayotga moslab borishni tavsiya etdi.

Shuningdek, Yusuf Xos Xojib o'zining «Qutadg'u bilik» asarida eng komil, jamiyatning talablariga javob beradigan insonni tarbiyalash, A.Jomiy asarlarida («Tuxfatul axror») ilm-ma'rifat, ta'lim-tarbiya, kasb-hunar o'rgatish, yoshlarda yaxshi hislatlarni, odoblilikni shakllantirish va ijtimoiylashuv jarayonlari haqidagi fikrlar bayon etilgan.

Axmad Yassaviyning mehr-sahovatli bo'lish haqidagi qarashlari, Imom al-Buxoriy ijodidagi shaxslararo munosabatlar, Baxovuddin Naqshbandiy ijodida aql va dunyoqarashning shakllanishi, A.Navoiy faoliyatida ilmiy ta'lim-tarbiyaning asoslanishi kabilar boy meros sifatida ahamiyatlidir.



**FARZAND TARBIYASIDA OTA-ONALAR ROLI:
ZAMONAVIY PEDAGOGIK VA
PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR**
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya



Tahlil va natijalar. O'tgan ajdodlarimiz ijtimoiylashuv masalasini izchil va atroflicha, muayyan yo'nalishda, ma'lum konsepsiya asosida o'rganmagan bo'lsalar ham, allomalarning asarlarida mazkur holatlarning aks etishi, namoyon bo'lishi, rivojlanishi va o'zgarishlari to'g'risida qimmatli fikrlar bildirilgan. Bular to'rt xil manbalarda uchraydi. Ularning biri - xalq ijodiyoti: rivoyatlar, maqollar, matallar va masallar; ikkiinchisi - maxsus ijodkor kishilar muayyan shaxsga bag'ishlab yozgan o'git-nasihat va hikoyatlar; uchinchi - qomusiy, O'rta Osiyo mutafakkirlarining ilmiy-nazariy qarashlari; to'rtinchisi - turli davrlarda ijod qilgan shoir va yozuvchilar ijodining mahsullari, ya'ni badiiy asarlardir.

Jamiyatda yuksak ma'naviy fazilatlarni kamol toptirish, talaba-yoshlarni boy madaniy merosimiz, tarixiy an'analarimizga, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, Vatanga muhabbat, istiqloq g'oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularni jamiyat hayotida faol ishtirok etuvchi barkamol shaxs etib tarbiyalash mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha isloxlarning hal qiluvchi omilidir.

Bizning fikrimizcha, shaxsning ijtimoiylashuvi ota-onaning turmush qurishdagi faoliyatiga bog'liq. Chunki shaxsning ijtimoiylashuvi bevosita oilada kamol topadi. Shu nuqtai nazardan bola tug'ilmasidan avval uning ijtimoiylashuvi yuzaga keladi. Bu xususiyat sohibqiron Amir Temur quyidagicha fikr bildiradi: «O'g'illarim, nabiralarning va yaqinlarimni uylantirmoq tashvishida kelin izlamoqqa e'tibor berdim. Bu ishni davlat yumushlari bilan teng ko'rdim. Kelin bo'lmishning nasli-nasabini, yetti pushtini surishtirdim. Xos odamlar orqali sog'liq-salomatligini, jismonan kamolatini aniqladim. Kelin bo'lmish nasli-nasabasi, odob-ahloqi, sog'lom va baquvvatligi bilan barcha qusurlardan holi bo'lsagina el-yurt koriga yaraydigan, barkamol farzandni dunyoga keltira oladi», - deydi.[1.B.26]

Xorijiy mamlakatlarda jumladan, Rossiyada pedagogik tadqiqot namunalari Sharq va G'arb madaniyati ta'sirida inson kamoloti va ijtimoiylashuvi bilan bog'liq qator og'zaki va yozma, amaliy va ilmiy asarlarda paydo bo'la boshladi. Dastlabki ijtimoiylashuv mazmunidagi asarlar XVII-XVIII asrlarda diniy-ahloqiy negizda yozilgan edi. Rus sotsiologlari G.P.Predvechniy va Yu.A.Sherkovinlarning "Sotsial psixologiya" kitobida "... shaxsning ijtimoiylashuvi va rivojlanishi jamiyatning inikosidir", [2.B.54] — deb hisoblaniladi. Bu mualliflar ijtimoiy jarayonlarning barcha o'rganish obyektlarini sharhlar ekanlar, ko'proq sotsiologik yondashish bilan muammolarni yechishga harakat qilganlar. Maktab yoshidagi bolalarni ijtimoiylashuvini ta'riflashga aynan pedagogik yondashuv A.V.Petrovskiy va V.V.Shpalinskiylarning «Jamoaning ijtimoiy psixologiyasi» kitoblarida bayon etilgan.

Bu mualliflarning fikricha, "Ijtimoiylashuv - u turli uyushgan va uyushmagan guruhlardagi odamlarning muloqati, o'zaro ta'sir va munosabatlaridan kelib chiqadigan psixik hodisalardir".[3.B.62] Yuqorida aytilgan asarlarda idealistik qarashlarga xayrixohlik ijtimoiy muhitning ahamiyatiga ehtiborsizlik ko'zga tashlanadi.



**FARZAND TARBIYASIDA OTA-ONALAR ROLI:
ZAMONAVIY PEDAGOGIK VA
PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR**
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya



Bu esa kishining atrof muhitga shaxsiy munosabatidan boshqa narsa emas, albatta. P.Janening fikricha, eng qimmatli, ahamiyatli, ijtimoiy harakat hamkorlikdagi faoliyatda o'z ifodasini topadi, shaxslararo tashqi munosabatlar rivojlanishning prinsipi hisoblanadi.[4.B.28] Psixologlarning fikricha, (G.Asmolov, P.Shixerev, V.A.Yadov, P.Nadirashvili va boshqalar) ijtimoiy ustanovkalarini o'zgartirish uchun shu ustanovkaning sababi bo'lgan vaziyat yoki faoliyatning maqsadi va motivini o'zgartirish shartdir. Shu narsa shaxsning aktiv ongli faoliyatida sodir bo'ladi. Shaxs sotsializatsiya jarayonida turli ustanovkalarini ro'yobga chiqarish sharoitida faollik ko'rsatadi. Shunday faollikning natijalarini biz uning ijtimoiy-psixologik sifatlarida ko'rsatgan. Bu sifatلامي ba'zi mualliflar persektiv qobiliyatlar (V.A.Labunskaya) deb atasalar, boshqalari "ijtimoiy ta'sirlarga hissiy javob berish qobiliyati"[5.B.37] (A.Bodalev), "ijtimoiylashuv", "ijtimoiylashish" (Yu.Jukov) va hokazo deb atashgan.[6.B.62] Boshqa sifatlar "muloqotda namoyon bo'luvchi sifatlar"dir.

Xulosa. Xulosa sifatida talabalarda ijtmoiy ko'nikmalarni rivojlantirish bir muncha murakkab va uzoq muddatli jarayon hisoblanadi. Bu jarayonda avvalo pedagogdan alohida kasbiy mahorat talab etiladi.

Talabalarda ijtmoiy ko'nikmalarni rivojlantirish jarayoni bir necha omillarga bog'liq. Shuning uchun talabalarda ijtmoiy ko'nikmalarni rivojlantirish quyidagi integrativ tashkil etuvchilar doirasida o'rganish maqsadga muvofiq: pedagogning kasbiy-shaxsiy insonparvarlik sifatlarining bolaning ma'naviy-axloqiy sifatlarining shakllanishi bilan o'zaro aloqadorligida shakllanishi, talabaning mos sifatlarining rivojlanish kompleksining dinamik tizimlarini ishlab chiqish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Egamberdiyeva N.M. Ijtimoiy pedagogika. Darslik. Toshkent.: Alisher Navoiy nomidagi "O'zbekiston milliy kutubhona" nashriyoti, 2009, 232 -bet.
2. Леонтьев А. Деятельностный ум (Деятельность. Знак. Личность). – М.: Смысл, 2001. – 392 с.
3. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. – СПб.: Питер, 2006. - С.79.
4. Темиров Н.С. [Проблема культуры общения, коммуникативности и социально-коммуникативной деятельности обучающихся в государственной образовательной политике.](https://elibrary.ru/item.asp?id=46246557) <https://elibrary.ru/item.asp?id=46246557>
5. Қўчқоров В. Маънавият ва миллий ўзликни англаш. – Т.: Akademiya, 2008. – 8-б
6. Уч буюк қадрият: маънавият, ахлоқ-одоб, маърифат // http://he.tiiame.uz/storage/web/source/1/axborot_soati/Axborot_soati_2011.09.2020_.pdf